

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc. 22/2025.27.12.I.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**“IPAK YO ‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO  
UNIVERSITETI**

**MAXMUDOVA AZIZA PIRMAMATOVNA**

**HUDUDLARDA TURIZM XIZMATLARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH  
JARAYONINING USLUBIY-METODOLOGIK ASOSLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.17-Turizm va mehmonxona faoliyati**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2026**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc)  
по экономическим наукам**

**Table of contents of the abstract for the doctoral dissertation (DSc) in  
economic sciences**

**Maxmudova Aziza Pirmamatovna**

Hududlarda turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish jarayonining uslubiy-  
metodologik asoslarini takomillashtirish.....5

**Махмудова Азиза Пирмаматовна**

Совершенствование методологических основ процесса диверсификации  
туристских услуг в регионах.....35

**Makhmudova Aziza Pirmamatovna**

Improvement of the methodological and methodological foundations of the process  
of diversification of tourist services in theregions.....69

**E’lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....75

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc. 22/2025.27.12.I.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**“IPAK YO ‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO  
UNIVERSITETI**

**MAXMUDOVA AZIZA PIRMAMATOVNA**

**HUDUDLARDA TURIZM XIZMATLARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH  
JARAYONINING USLUBIY-METODOLOGIK ASOSLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.17-Turizm va mehmonxona faoliyati**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2026**

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.DSc/Iqt.904 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya "Ipak Yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.univ-silkroad.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:** Tuxliyev Iskandar Suyunovich  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** Ibragimov Nutfullo Salimovich  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Matyakubov Umidjon Rahimovich  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi "Ipak Yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitet huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.22/2025.27.12.1.01.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 6-iyun kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 17-uy. Tel.: (998 80) 725-89-07; faks: (998 66) 240-67-68; e-mail: science dept@univ-silkroad.uz, info@univ-silkroad.uz.

Dissertatsiya bilan "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (48-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 17-uy. Tel.: (998 50) 725-89-07; faks: (998 66) 240-67-68; e-mail: science dept@univ-silkroad.uz, info@univ-silkroad.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil « 8 » may kuni tarqatildi.  
(2026 yil « 8 » may dagi 6-raqamli feestr bayonnomasi).



**A.A. Eshtayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, i.f.d., professor

**X.I. Turdibekov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, i.f.n., dotsent

**B.Sh. Safarov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,  
professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda globallashtirish jarayonlari chuqurlashib borayotgan hamda xalqaro turizm bozorida raqobat keskinlashayotgan sharoitda turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish hududiy turizm tizimlarining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan biriga aylanmoqda. Jahon amaliyotida an'anaviy turizm shakllaridan ko'p formatli turistik mahsulotlarga o'tish jarayoni kuzatilmoqda. UN-Tourism ma'lumotlariga ko'ra, "2025-yilda xalqaro turistik tashriflar soni 1,52 milliard kishiga yetib, 2024-yilga nisbatan 4 foizga oshgan va jahon turizmi rivojlanishining yangi rekord darajasini"<sup>1</sup> qayd etgan. Bu borada, zamonaviy turizm rivojlanishining muhim xususiyatlari sifatida turistik xizmatlarning raqamlashtirilishi, sun'iy intellekt texnologiyalarining keng joriy etilishi, turistlar tajribasini individuallashtirish hamda kompleks turistik ekotizimlarning shakllanishi namoyon bo'lmoqda. Mazkur sharoitda, hududlarda innovatsion turistik mahsulotlarni shakllantirish, xizmatlar spektrini kengaytirish hamda turizm industriyasining global rivojlanish tendensiyalariga moslashish imkonini berib, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish jarayonining metodologik asoslarini takomillashtirish alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda hududlarda turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish jarayonining metodologik asoslarini takomillashtirish masalalari turistik destinatsiyalarning barqaror rivojlanishini ta'minlash, ularning raqobatbardoshligini oshirish hamda turistik talabning global o'zgarishlariga moslashish borasida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish modellarini ishlab chiqish, hududlarning madaniy, tabiiy va kreativ resurslarini integratsiyalash, kompleks turistik klasterlarni shakllantirish, boshqaruvning innovatsion instrumentlarini foydalanish, raqamli platformalar, sun'iy intellekt texnologiyalari va katta ma'lumotlar tahlilini qo'llash, turistik talabning yangi segmentlarini aniqlash hamda personallashtirilgan turistik takliflarni shakllantirish, "yashil turizm" konsepsiyalarini rivojlantirish hamda turistik xizmatlar diversifikatsiyasini ta'minlovchi va hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi integratsiyalashgan turistik ekotizimlarni shakllantirish yo'nalishidagi ilmiy tadqiqotlar kabi masalalarga alohida e'tibor berilmoqda.

Yangi O'zbekiston sharoitida hududlarda turistik xizmatlarini jadal diversifikatsiya qilish, global miqyosida integratsiyalashuv darajasini oshirish va destinatsiyalarning salohiyatidan oqilona foydalanish orqali turizmini samarali rivojlantirishga qaratilgan maqsadli dasturlar va chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Biz turistlar uchun sharoit yaratishni istaymiz, lekin buning asosini ham to'g'ri yo'lga qo'yishimiz kerak. Master-rejaga muvofiq, ta'lim-innovatsiya, turizm va savdo, madaniy meros, biznes hamda IT xizmatlarini qamrab olgan "rivojlanish koridorlari" shakllantirish lozim"<sup>2</sup>. Ushbu vazifalarning amalga oshirilishi hududlarda turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish jarayonining uslubiy-metodologik asoslarini takomillashtirish, hududiy turistik resurslardan

---

<sup>1</sup><https://www.itij.com/latest/news/global-tourism-hits-152-billion-arrivals-2025-africa-leads-growth>

<sup>2</sup> <https://president.uz/oz/lists/view/8875>

samarali foydalanishning ilmiy yondashuvlarini ishlab chiqish, turizm klasterlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt asosida turistlar oqimini prognozlash, turizm xizmatlari sifatini boshqarishning innovatsion modellari hamda davlat-xususiy sheriklik asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish mexanizmlarini o'rganish, shuningdek ekoturizm, gastronomik, ziyorat, tibbiy-sog'lomlashtirish va kreativ turizm kabi yangi turizm yo'nalishlarini rivojlantirishning ilmiy-amaliy asoslarini tadqiq etish, istiqbolli parametrlarini ekonometrik modellar yordamida prognozlash bo'yicha chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida", 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-son "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2026-yil 30-yanvardagi PF-15-son "O'zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlar bilan madaniyat va turizm sohalaridagi aloqalarini yanada kengaytirish"gi farmonlari, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida", 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2024-yil 12-yanvardagi PQ-21-son "O'zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 18-iyuldagi PQ-269-son "Turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari" hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-iyundagi 385-son "Turizm obyektlari hamda joylashtirish vositalarida atrof-muhitga salbiy ta'siri kamaytirilgan mahsulotlardan foydalanish va ekologik talablarga muvofiq ko'rsatiladigan xizmatlarni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2025-yil 15-dekabrdagi 787-son "Xalqaro turizm akademiyasi Samarqand kampusi faoliyatini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi"gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi<sup>3</sup>.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi<sup>4</sup>.** Jahonda turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar yetakchi

<sup>3</sup> <https://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

<sup>4</sup>Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi University of Melbourne (Avstraliya), The University of Calgary (Kanada), World Tourism Education and Research Centre, School of Leisure and Food Management Sheffield Hallam University (Buyuk Britaniya), International Centre for Tourism and Hospitality Research, Bournemouth University (Buyuk Britaniya), Queensland University of Technology (Avstraliya), Korea

ilmiy markazlar va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Griffith Institute for Tourism (Avstraliya), Centre for Hospitality & Tourism, University of Surrey (Buyuk Britaniya), School of Hotel and Tourism Management (The Hong Kong Polytechnic University, PolyU, Gonkong), Center for Hospitality Research – Cornell University (Nyu-York, AQSh), UHERO University of Hawai'i Economic Research Organization (Gavayi, AQSh), UN Tourism (World Tourism Organization) va WTTC (World Travel & Tourism Council), University of Exeter – Centre for Rural Policy Research (Buyuk Britaniya), Edinburgh Napier University – Tourism Research Centre, Leeds Beckett va Bournemouth Research Groups (Buyuk Britaniya), IIT va mintaqaviy markazlar), Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (Rossiya), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Samarqand davlat universiteti, "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis institutlari (O'zbekiston Respublikasi)da olib borilmoqda.

Hududlarda turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishning uslubiy-metodologik asoslariga oid tadqiqotlar jarayonida qo'yidagi ilmiy natijalar olingan: turizmdagi malaka va destinatsiya moslashuvchanligi bog'lanishi ko'rsatilgan, mintaqaviy rivojlanish va voqealar orqali diversifikatsiyaga qaratilgan siyosat tavsiyalari berilgan (School of Hospitality & Tourism Management – University of Surrey, Buyuk Britaniya), mehmonxonalar uchun barqarorlik indeksi va boshqa baholash vositalari ishlab chiqilgan, xizmatlar diversifikatsiyasiga amaliy yechimlar taklif qilingan (Center for Hospitality Research – Cornell University, AQSh), makroiqtisodiy tahlillarda turizmga bir tomonlama bog'liqlikning xatarlari ko'rsatilgan va diversifikatsiya siyosatlari tavsiya qilingan (UHERO – University of Hawai'i Economic Research Organization, AQSh), destinatsiya hayot sikli nazariyasi va meros turizmi orqali ijtimoiy-iqtisodiy samaralar o'rganilgan (University of "Otago – Turizm va Geografiya, Yangi Zelandiya), qishloq hududlarda turizm diversifikatsiyasi orqali jamoa manfaatlari va barqaror rivojlanish ta'minlanishi ko'rsatilgan (University of Exeter" – Centre for Rural Policy Research, Buyuk Britaniya), shahar strategiyalari va voqealar orqali diversifikatsiya mahalliy iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi (Edinburgh Napier University-Tourism Research Centre, Buyuk Britaniya), voqea va regional strategiyalar orqali diversifikatsiya imkoniyatlari asoslangan (Leeds Beckett University / Bournemouth University – Tourism & Hospitality Research Groups, Buyuk Britaniya), globallasuv sharoitida turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasini takomillashtirish orqali mamlakat turistik jozibadorligi hamda iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarish samaradorligining oshishiga erishilgan, hududiy turizm bozorini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari takomillashtirilgan (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Samarqand davlat universiteti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Ipak Yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti, Buxoro davlat universiteti, Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti, Urganch davlat universiteti – O'zbekiston Respublikasi).

---

Development Institute (Janubiy Koreya), Bocconi University (Italiya), Universita di Trento (Italiya), Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Samarqand davlat universiteti, «Ipak yo'li» turizm xalqaro universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti veb-sahifalari va boshqa manbalar asosida yoritilgan.

Hududlarda turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishning uslubiy-metodologik asoslari bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, jahonda globallashuv sharoitida turizm xizmatlar diversifikatsiyasining marketing strategiyasini takomillashtirish; turizm sohasida "zamonaviy jarayonlarni qo'llagan holda turistik xizmatlar samaradorligini oshirish uslubiyatini takomillashtirish; qishloq hududlarda turizm diversifikatsiyasi orqali jamoa manfaatlari va barqaror rivojlanishni ta'minlash; destinatsiyalarda ko'p mahsulotli diversifikatsiyaga o'tish yo'llarini amalga oshirish"<sup>5</sup>; turistik mahsulotni diversifikatsiya qilishning innovatsion strategiyalardan samarali foydalanish, raqamli transformatsiyalashuv sharoitida ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish yo'nalishlari va hokazo.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Jahonda tadqiqotning metodologik yondashuvlari, ishlab chiqarish va kapitalni diversifikatsiya qilish strategiyasining nazariy asoslari H.Goodwin, J.Tribe, N.Vanhove, C.M.Holl, S.Page, O.V.Shpirnya, G.V.Ermakov, A.V.Medyanik, M.V.Gusev, S.Nikitin, L.Demidov, A.A.Tompson, A.J.Striklend, Yu.B.Vershinin, G.Ya.Goldshteyn, G.I.Nemchenko, S.A.Mitelman, N.B.Rudik, Ye.V.Semenkovoyning<sup>6</sup> ilmiy asarlarida o'rganilgan.

O'zbekistonlik olimlar N.To'xliyev, M.E.Po'latov, M.Q.Pardayev, M.M.Muxammedov, I.S.Tuxliyev, A.A.Eshtayev, B.Sh.Safarov, A.Norchayev, B.X.To'rayev, O.X.Hamidov, M.T.Alimova, M.T.Alieva, N.S.Ibragimov, A.T.Mirzayev, U.R.Matyakubov, Ye.V.Golisheva, S.Sh.Xalilov, N.Sh.Mansurovalarning tadqiqotlari turistik hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning turli masalalariga bag'ishlangan<sup>7</sup>.

---

<sup>5</sup> Book\_of\_Proceedings\_esdBaku2021\_Online.p df [https://www.esd-conference.com/upload/book\\_of\\_proceedings/Book\\_of\\_Proceedings\\_esdBaku2021\\_Online.pdf](https://www.esd-conference.com/upload/book_of_proceedings/Book_of_Proceedings_esdBaku2021_Online.pdf).

<sup>6</sup> Goodwin H. Responsible Tourism: Using Tourism for Sustainable Development – Oxford: Goodfellow Publishers, 2016. – 240 p. Tribe J. The Economics of Recreation, Leisure and Tourism – 4th ed. Oxford: Butterworth-Heinemann, 2011. – 460 p. Vanhove N. The Economics of Tourism Destinations – 2nd ed. – London: Routledge, 2011. – 372 p. Hall C. M., Page S. The Geography of Tourism and Recreation: Environment, Place and Space – London: Routledge, 2014. – 458 p. Шпырня О. В. Технологические драйверы развития рынка туристических услуг // Научный вестник Южного института менеджмента. – М.: Академия, 2019. – С. 17., Ермаков Г. В. Проблемы и перспективы диверсификация туристских продуктов регионов // Молодая наука. – 2019. – №1. – С. 16., Медяник А.В. Специфика процесса управления рисками на предприятиях туристической деятельности // Туристическая деятельность России. – М.: Изд-во РДЛ, 2017. – 34 с., Гусев М. В. Диверсификации на высокотехнологичных предприятиях. – Текст: электронный // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – 2011. –№10 // Научная электронная библиотека «КиберЛенинка»: [сайт]. – URL: <http://cyberleninka.ru/article/n/diversifikatsiya-na-vysokotehnologichnyh-predpriyatiyah> (дата обращения: 20.02.2021)., Никитин С., Демидова Л., Степанова М. Монополия, олигополия и конкуренция // Мировая экономика и международные отношения. – 1989. – № 3. – С. 18–26., Томпсон А.А., Стрикленд А.Дж. Стратегический менеджмент. Искусство разработки и реализации стратегий: учеб. для вузов / пер. с англ.; под ред. Л. Г. Зайцева, М.И. Соколовой. – Москва: Банки и биржи; ЮНИТИ, 1998. – 86 с. Ю.Б Вершинин. Формирование стратегии диверсификации промышленного предприятия. Автореф. дисс. д-ра экон. наук. Ульяновск, 2004 г. Гольдштейн Г.Я. Анализ, диагностика и стратегическое прогнозирование развития систем. Автореф. дис д-ра экон. наук. Волгоград, 2012 г. Немченко Г.И. Инструментарий оценки эффективности и векторы развития системы закупок в сфере государственных и муниципальных финансов. Автореф. дис д-ра экон. наук. Краснодар, 2017 г. Мительман С.А. Диверсификация капитала в финансовой деятельности торгово-промышленной компании. Автореф. дис д-ра экон. наук. Екатеринбург, 2000 г. Рудык Н.Б., Семенкова Е.В. Рынок корпоративного контроля: слияния, жесткие поглощения и выкупы долговым финансированием. – М.: Финансы и Статистика, 2000. – 456 с.

<sup>7</sup> Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Национальные модели развития туризма // –Т.: Гос. Науч. Изд-во "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2006. 386 б.; Po'latov M.E. va boshqalar. Global iqtisodiy rivojlanish (turizm iqtisodiyoti) // O'quv qo'llanma. T.: Fan va texnologiya, - 2018. 296 b.; Pardayev va boshqalar. Turistik korxonalar moliyaviy-xo'jalik

Yuqoridagi mualliflarning turizm va mehmondo'stlik industriyasini, turizmning ayrim turlarini rivojlantirishni, shuningdek, iqtisodiyot va turizmni barqaror rivojlantirish muammolarini hal etishga qo'shgan nazariy va amaliy hissalari shubhasizdir. Biroq, mintaqaviy darajada barqaror rivojlanish sharoitida turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishning nazariy-metodologik masalalari yetarli darajada yoritilmaganligi sababli, ushbu masalalar bilan bog'liq muammolarni hal etish hamda ularni nazariy-metodologik jihatdan asoslash zarurati, dissertatsiya tadqiqotining maqsad va vazifalarini belgilab beradi.

Bu holat, o'z navbatida, hududlarda turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishning uslubiy-metodologik asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq muammolarga bag'ishlangan mavzuni tadqiq etishda asos bo'ldi. Mavjud ilmiy tadqiqotlarda hududlarda turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishning yetarli darajada yoritilmagan, xususan, turizm resurslaridan samarali foydalanish tizimini o'rganish, turizm sohasida rivojlantirish tizimini modellashtirish hamda turistik resurslar salohiyatini baholash usullarini takomillashtirish zarurati mazkur mavzuning alohida dolzarbligini belgilab beradi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti "Inklyuziv turizmni tashkil etishning metodik asoslarini ishlab chiqish (Navoiy viloyatining Xatirchi, Nurota va Qiziltepa tumanlari misolida)" №IL-9124093892 mavzusidagi innovatsion loyhaning ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** hududlarda turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish jarayoning uslubiy-metodologik asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

turizm faoliyatini diversifikatsiya qilish tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini tadqiq etish;

---

faoliyati tahlili. Samarqand, SamISI, 2019. – 268 b.; Tuxliyev I.S., Abduxamidov S.A. Turizm: nazariya va amaliyot. Darslik (Uchinchi nashr) –T.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2021. 424 bet.; Eshtayev A.A. Globallashuv sharoitida turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi (O'zbekiston Respublikasi turizm tarmog'i misolida) // Doctor of science dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand. 2019. 71 b.; Safarov B.Sh., Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari // – T.: Fan va texnologiya, 2016, 184 b.; Norchayev A.N. Xalqaro turizm rivojlantirishning iqtisodiy o'sishga ta'siri // Nomzodlik dissertatsiyasi. TDIU, 2004 y. 120 b.; Тураев Б.Х. Развитие организационно-экономических механизмов функционирования регионального туризма // -док. дисс. автореф., 2011. 38 с.; Хамидов О.Х. O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarishni takomillashtirish: muammo va yechimlar // Monografiya. – T.:Iqtisodiyot, 2016. 203 b.; Алимова М.Т. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida) // Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - S.: SamISI, 2017. 265 b.; Aliyeva M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari (O'zbekiston Respublikasi misolida) // Doctor of science dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand. 2019. 78 b., Ibragimov N.S. O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirishda destinatsion menejment konsepsiyasini qo'llash // dis. ... i.f.n. Buxoro, 2006. T. 1. № 1. 183 b., Mirzayev A.T. O'zbekistonda turistik-rekreatsiya faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish // DSc. diss. avtoref. – T.:, 2021. 68 b., Matyakubov U.R. Orolbo'yi mintaqasida turizmni strategik rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy va metodologik yo'nalishlarini takomillashtirish // DSc. diss. avtoref. – Urganch, 2022. – 78 b., Гольшева Е.В. Совершенствование организации и механизма регулирования развития туризма в рыночных условиях // дис. ... канд. экон. наук. Ташкент, 2012 Khalilov S. Barqaror turizm rivojlanishi // o'quv qo'llanma – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyotmatbaa uyi, 2021. – 96 b. – ISBN 978-9943-7661-7-4., Mansurova N.Sh. Yashil iqtisodiyot sharoitida barqaror turizmni samarali rivojlantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish // Doctor of science dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand. 2025. 80 b..

turizm sohasida ta'lim va ilmiy tadqiqot tarmoqlarini diversifikatsiya qilishni o'rganishning metodologik yondashuvlarini o'rganish;

hududlarda turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishning xorij tajribasini o'rganish;

turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilishning innovatsion strategiyasini tanlashda metodologik yondashuvlarni tadqiq qilish;

turistik xizmatlarning diversifikatsiya strategiyasini shakllantirishda PESTLE – tahlil usulidan foydalanish;

turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishning samaradorligiga ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlarni tahlil qilish;

demografik omillar asosida turizm xizmatlari iste'molchilarini segmentlashtirish va diversifikatsiya holatining tahlilini amalga oshirish;

turizm faoliyatini diversifikatsiya qilishning gibrid modellari asosida turizm korxonalarini samaradorligini oshirish mexanizmlarini ilmiy asoslash;

mamlakatimizda inklyuziv turizmni tashkil qilish orqali turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishni takomillashtirish yo'nalishlarini ishlab chiqish;

hududlarda xalqaro turizm xizmatlarini raqamli platformalar asosida diversifikatsiya qilish mexanizmini takomillashtirish;

turizmni milliy iqtisodiyotning strategik sektori sifatida rivojlantirishda diversifikatsiya jarayonining ta'sirini baholash va prognoz parametrlarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida mamlakatimizda turizm sohasida faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar olingan.

**Tadqiqotning predmeti** hududlarda turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishning uslubiy-metodologik asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada taqqoslash, tizimli tahlil, guruhlash, induksiya-deduksiya, mantiqiy va taqqoslama tahlil, statistik va solishtirma tahlil, abstrakt-mantiqiy yondashuv, ekspert baholash, regression-korrelyatsion tahlil, ekonometrik modellashtirish va prognozlash kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

“Har to'rt faslda sayohat” tashabbusi doirasida bahor, yoz, kuz va qish turizm mavsumlarining ochilishiga bag'ishlangan festival tadbirlarini o'tkazish jarayonida respublikaning ekologik, ekstremal, agro-, gastronomik, tibbiy va sog'lomlashtirish, plyaj va suvda dam olish, madaniy-ma'rifiy, ko'ngilochar turizm hamda tog'chang'i kurortlari salohiyatini namoyish etish va targ'ib qilish maqsadida turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish samaradorligiga ta'sir etuvchi integral ko'rsatkichlar tizimi asosida, diversifikatsiya indeksining juda past samaradorlik ( $DI < 0,4$ ), o'rtacha samaradorlik ( $0,4 \leq DI < 0,6$ ) va yuqori samaradorlik ( $DI \geq 0,6$ ) darajalari bo'yicha klassifikatsiya mezonlariga tayangan holda ishlab chiqilgan hamda tegishli chegaraviy qiymatlari belgilangan hisoblash “Integral diversification” usuli bo'yicha takliflar asoslangan;

turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish jarayonida tarmoqning ixtisoslashuvini chuqurlashtirish, turistlar oqimini oshirish hamda mavsumdan tashqari davrlarda ham jozibador va maxsus turistik yo'nalishlarni shakllantirish

maqsadida chodirlar (kempinglar) uchun 100 mln so‘mgacha, o‘tovlar uchun 300 mln so‘mgacha, ekouylar uchun 500 mln so‘mgacha, konteynerlar uchun 600 mln so‘mgacha, xostellar uchun 1 mlrd so‘mgacha, glempinglar uchun 1,5 mlrd so‘mgacha, modulli mehmonxonalar va avtokemping lagerlari (kamida 10 ta avtokemping) uchun 3 mlrd so‘mgacha, milliy valyutada 5 yil muddatga, 1 yillik imtiyozli davr bilan, Markaziy bankning asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada kredit mablag‘lari ajratish asosida xizmat, infratuzilma, boshqaruv va investitsion diversifikatsiya imkoniyatlarining o‘zaro uyg‘unligini ta‘minlovchi “Hybrid diversification” modeli bo‘yicha takliflar asoslangan;

xorij davlatlaridan yanada ko‘proq sayyohlarni jalb qilish, respublika hududlariga 15,8 million nafar xorijiy turistlarning safarlarini tashkil etish hamda turizm xizmatlari eksportini 4 milliard AQSh dollariga yetkazish maqsadida quruqlikdagi davlat chegara postlaridan o‘tayotgan turistlar uchun alohida O‘zbekiston turizm salohiyatini namoyish etuvchi “Turizm burchagi”ni tashkil etish asosida Buyuk ipak yo‘lining “Zarafshon - Qoraqum yo‘lagi” bo‘yicha yangi turizm marshrutini ishlab chiqish va targ‘ibot ishlarini amalga oshirish uchun “Zarafshan-Karakum Tourism Corridor” usulidan foydalanish dalillangan;

respublikada turizm infratuzilmasidagi mavjud muammolarni hal etish, sohada ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va to‘siqsiz turizm yo‘nalishida davlat tomonidan nogironligi bo‘lgan fuqarolarga qo‘shimcha rag‘batlantirishlar yaratish maqsadida ming nafar I va II guruh nogironligi bo‘lgan fuqaroga O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qilish xarajatlarining 50 foizi hamda eshitish qobiliyatini yo‘qotgan nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun surdogidlar tayyorlash kurslari xarajatlarining 50 foizini qoplab berish asosida “Inklyuziv turizm modeli” usulidan foydalanish tartibi bo‘yicha takliflar asoslangan;

hududlarda turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish jarayonining ta‘sirini hisobga olib, innovatsion turizm xizmatlaridan samarali foydalanish va turizmning YaIMdagi ulushini baholash ko‘rsatkichlarining hisob-kitoblari asosida 2030-yilgacha bo‘lgan o‘rta muddatli prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

turizm xizmatlarini gorizontal diversifikatsiya qilish jarayonida mahalliy iqtisodiyotda dastlabki ekoturistik xarajatlarning multiplikatsiya koeffitsiyenti 3,12 deb hisoblangan va har bitta ekoturizm maqsadida kelgan turistning mamlakatdagi o‘rtacha xarajatini hisobga olgan holda, transaksiya natijasida mamlakatimiz byudjetiga qo‘shimcha ravishda bir yilda 587,7 mln AQSh dollari miqdorida multiplikativ samara olish imkoniyati dalillangan;

turistik mahsulotni diversifikatsiya qilishda Boston Consulting Group tomonidan ishlab chiqilgan matritsa asosida turistik firmalarning tarmoqdagi bozor ulushi va o‘shish sur‘atlarini hisobga olgan xolda turistik mahsulotlarni ishlab chiqish, mavjud mahsulotlarning moslashuvchanligini oshirish, yangi bozorlarga chiqish va ilgari foydalanilmagan yangi turistik yo‘nalishlarni rivojlantirish bo‘yicha innovatsion strategiyalarni tanlashning takomillashgan usulidan foydalanish dalillangan;

raqamli transformatsiyalashuv sharoitida sayyohlik mahsulotlarini, turistik xizmatlar va tovarlarni, axborot va raqamli xizmatlarni yaratish hamda iste‘mol

qilish jarayonidagi barcha tarkibiy elementlarni o'z ichiga oluvchi ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish modelining tarkibiy tuzilishi va uning tashkiliy bloklari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

turistik xizmatlarning diversifikatsiya strategiyasini shakllantirishda hududlarning kuchli raqobatbardosh ustunligini saqlab qolish va zaif pozitsiyalarini mustahkamlashda PESTEL-tahlil usuli orqali turizm turlarini diversifikatsiya qilish strategiyasining imkoniyatlari aniqlangan hamda turizmning alohida turlarini diversifikatsiya qilish strategiyasidan foydalanish mexanizmlari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlil jarayonida O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qumitasining rasmiy ma'lumotlari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (UN), Butunjahon turizm tashkiloti (UN Tourism), Xalqaro iqtisodiy forum (WEF), Xalqaro turizm va sayohat kengashi (WTTC), Jahon banki (WB), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mamlakatimiz milliy iqtisodiyotida turizm tutgan o'rnini belgilash hamda hududlarda turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish xususiyatlarini aniqlash, bu jarayonni metodologik asoslarini takomillashtirish va davlat qarorlarini qabul qilishda qo'llash imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, ushbu tadqiqot natijalari turizmni rivojlantirish uchun iqtisodiy-huquqiy, tashkiliy va metodologik-uslubiy asoslarni takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar uchun nazariy va amaliy manba sifatida foydalanish imkoniyatini taqdim etadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati hududlarda turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish jarayonining uslubiy-metodologik asoslarini takomillashtirish orqali barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishish va sohaning jozibadorligini oshirish bo'yicha takliflardan O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi tasarrufidagi tuzilmalar faoliyatida bevosita foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari 2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo'nalishi bo'yicha Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni bajarish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga muayyan darajada xizmat qilishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Hududlarda turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish jarayonining uslubiy-metodologik asoslarini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

“Har to'rt faslda sayohat” tashabbusi doirasida bahor, yoz, kuz va qish turizm mavsumlarining ochilishiga bag'ishlangan festival tadbirlarini o'tkazish jarayonida respublikaning ekologik, ekstremal, agro-, gastronomik, tibbiy va sog'lomlashtirish, plyaj va suvda dam olish, madaniy-ma'rifiy, ko'ngilochar turizm hamda tog'-chang'i kurortlari salohiyatini namoyish etish va targ'ib qilish maqsadida turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish samaradorligiga ta'sir etuvchi integral ko'rsatkichlar tizimi asosida, diversifikatsiya indeksining juda past samaradorlik (DI

$< 0,4$ ), o'rtacha samaradorlik ( $0,4 \leq DI < 0,6$ ) va yuqori samaradorlik ( $DI \geq 0,6$ ) darajalari bo'yicha klassifikatsiya mezonlariga tayangan holda ishlab chiqilgan hamda tegishli chegaraviy qiymatlari belgilangan hisoblash "Integral diversification" usuli bo'yicha asoslangan takliflar 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-son "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi "Nazorat rejasi"ga kiritilgan (Turizm qo'mitasining 2026-yil 9-martdagi 02-17/2415-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifdan foydalanish asosida turizm va rekreatsiya asosida turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishning samaradorligini 10 foiz oshirishga xizmat qilingan;

turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish jarayonida tarmoqning ixtisoslashuvini chuqurlashtirish, turistlar oqimini oshirish hamda mavsumdan tashqari davrlarda ham jozibador va maxsus turistik yo'nalishlarni shakllantirish maqsadida chodirlar (kempinglar) uchun 100 mln so'mgacha, o'tovlar uchun 300 mln so'mgacha, ekouylar uchun 500 mln so'mgacha, konteynerlar uchun 600 mln so'mgacha, xostellar uchun 1 mlrd so'mgacha, glempinglar uchun 1,5 mlrd so'mgacha, modulli mehmonxonalar va avtokemping lagerlari (kamida 10 ta avtokemping) uchun 3 mlrd so'mgacha, milliy valyutada 5 yil muddatga, 1 yillik imtiyozli davr bilan, Markaziy bankning asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada kredit mablag'lari ajratish asosida xizmat, infratuzilma, boshqaruv va investitsion diversifikatsiya imkoniyatlarining o'zaro uyg'unligini ta'minlovchi "Hybrid diversification" modelini amalga oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-son "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi "Nazorat rejasi"ga kiritilgan (Turizm qo'mitasining 2026-yil 9-martdagi 02-17/2415-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi orqali turizm xizmatlarini gibridlangan diversifikatsiya qilish jarayonida hudularda turistik korxonalarining bozor ulushini 45% ga kengayishiga hamda mijozlar qoniqishini 16 %ga yaxshiga zamin yaratgan;

xorij davlatlaridan yanada ko'proq sayyohlarni jalb qilish, respublika hududlariga 15,8 million nafar xorijiy turistlarning safarlarini tashkil etish hamda turizm xizmatlari eksportini 4 milliard AQSh dollariga yetkazish maqsadida quruqlikdagi davlat chegara postlaridan o'tayotgan turistlar uchun alohida O'zbekiston turizm salohiyatini namoyish etuvchi "Turizm burchagi"ni tashkil etish asosida Buyuk ipak yo'lining "Zarafshon – Qoraqum yo'lagi" bo'yicha yangi turizm marshrutini ishlab chiqish va targ'ibot ishlarini amalga oshirish uchun "Zarafshan–Karakum Tourism Corridor" usulidan foydalanish bo'yicha asoslangan takliflar 2025-yil 15-maydagi PF-87-son "Xorijiy va mahalliy turistlar oqimini yanada oshirish, turizm infratuzilmasini yaxshilash va targ'ibot ishlarini kengaytirish" bo'yicha "Yo'l xaritasi"ga kiritilgan (Turizm qo'mitasining 2026-yil 9-martdagi 02-17/2415-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifdan foydalanish asosida mamalakatimizni qo'shimcha ravishda turistlar oqimini 1,5 baravarga oshirishga imkoniyatini yaratgan;

respublikada turizm infratuzilmasidagi mavjud muammolarni hal etish, sohada ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va to'siqsiz turizm yo'nalishida davlat tomonidan nogironligi bo'lgan fuqarolarga qo'shimcha rag'batlantirishlar yaratish

maqsadida ming nafar I va II guruh nogironligi bo'lgan fuqaroga O'zbekiston bo'ylab sayohat qilish xarajatlarining 50 foizi hamda eshitish qobiliyatini yo'qotgan nogironligi bo'lgan shaxslar uchun surdogidlar tayyorlash kurslari xarajatlarining 50 foizini qoplab berish asosida "Inklyuziv turizm modeli" usulidan foydalanish tartibi bo'yicha takliflar 2024-yil 12-avgustdagi 498-son "To'siqsiz turizm orqali turizm imkoniyatlarini yanada kengaytirish bo'yicha qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi "Yo'l xaritasi"ga kiritilgan (Turizm qo'mitasining 2026-yil 9-martdagi 02-17/2415-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifdan foydalanish asosida inklyuziv segmentning turizm sektorining umumiy YaIMga nisbiy ulushi 37 % ga o'sishiga imkon bergan;

hududlarda turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish jarayonining ta'sirini hisobga olib, innovatsion turizm xizmatlaridan samarali foydalanish va turizmning YaIMdagi ulushini baholash ko'rsatkichlarining hisob-kitoblari asosida 2030-yilgacha bo'lgan o'rta muddatli prognoz parametrlarini qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar Turizm qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan "2026–2030-yillarda hududlarning turizm salohiyatini izchil o'rganish natijasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan chora-tadbirlar" dasturi hamda "Yo'l xaritalari"ga kiritilgan (Turizm qo'mitasining 2026-yil 9-martdagi 02-17/2415-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mamlakatimizda turizm sektorining YaIM dagi ulushini 12 % ga yetishi dalillangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari jami 2 ta, xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 26 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, shundan, 10 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda, 1 ta monografiya nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 210 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o'tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Turizm faoliyatini diversifikatsiya qilishning ilmiy-nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida turizm faoliyatini diversifikatsiya

qilish tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, Turizm sohasida ta'lim va ilmiy-tadqiqot tarmoqlarini diversifikatsiya qilishni o'rganishning metodologik yondashuvlari hamda ushbu hududlarda turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishning xorij tajribasi yoritilgan.


“Hozirgi paytda O‘zbekiston iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishning asosiy maqsadi mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligini rivojlantirishdan sanoat sohasiga o‘tish, shuningdek”<sup>8</sup>, sotilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshlik darajasini oshirish orqali eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiyotni barpo etishdan iborat. Shu munosabat bilan diversifikatsiya qilish, ya’ni taklif etilayotgan xizmatlarni faol ravishda kengaytirish zarurati tug‘ildi.

Bizning ilmiy qarashlarimizga ko‘ra, “turizm sohasini diversifikatsiya qilish” tushunchasi nafaqat turistik mahsulotlar va xizmatlar assortimentini kengaytirish, balki yangi turistik mahsulotlarni ishlab chiqish, ularni bozorga muvaffaqiyatli joriy etish, mavjud mahsulotlarni takomillashtirish va integratsiyalashgan hamda yangi bozor segmentlarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion va strategik faoliyatni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv turizm sub’ektlarining raqobatbardoshligini oshirish, iste’molchi ehtiyojlarini qondirish va sohaning barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun tizimli mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Xizmatlar sektori va turizm sohasida diversifikatsiya jarayonlari o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lsada, ularning metodologik asoslari, tahlil darajalari hamda iqtisodiy jihatidan muayyan farqlarga ega. Bu farqlar mazkur sohalarning iqtisodiyotda tutgan o‘rni, amal qilish ko‘lami va rivojlanish mexanizmlari bilan izohlanadi. Xizmatlar sektori diversifikatsiyasi makroiqtisodiy va tarmoqlararo yondashuvlar asosida shakllanadi. Uning asosiy maqsadi milliy iqtisodiyot tarkibini murakkablashtirish, ya’ni yuqori qo‘shimcha qiymat yaratuvchi, bilim va texnologiyalarga asoslangan xizmatlar ulushini oshirishdan iborat. Ilmiy adabiyotlarda bu jarayon iqtisodiy komplekslik nazariyasi, tarkibiy transformatsiya va innovatsion o‘shish konsepsiyalari doirasida talqin qilinadi. Xizmatlar sektorida diversifikatsiya iqtisodiy o‘shishning barqarorligini ta’minlash, eksport salohiyatini kengaytirish, mehnat bozorini sifat jihatdan yaxshilash hamda iqtisodiyotning tashqi raqobatiga nisbatan chidamliligini oshirish vazifalarini bajaradi.

---

<sup>8</sup> <https://ieeexplore.ieee.org/author/37087419125>



**1-rasm. "OTT-Biznes-Davlat" hamkorlik modeli<sup>9</sup>**

"OTT – biznes – davlat" modeli turizm va mehmondo'stlik sohasida ta'lim hamda ilmiy-tadqiqot yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish, yangi turistik xizmatlar va yo'nalishlarni rivojlantirish, shuningdek, milliy turizm salohiyatini va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv sohaning barqaror va innovatsion rivojlanishi uchun mustahkam amaliy asosni shakllantiradi (1-rasm).

<sup>9</sup> Muallif ilmiy-tadqiqotlari asosida tayyorlandi

Turizm sohasi mamlakatlarda aholi bandligini qo'llab-quvvatlash, investitsiyalarning tezda qaytishini ta'minlash, soliq tushumlarini oshirish, xorijiy valyuta oqimini ta'minlash va daromad manbalarini kengaytirishda muhim vosita sifatida e'tirof etilmoqda. Shuningdek, turizm mahalliy, mintaqaviy va milliy darajada iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga, turizm bilan bog'liq tarmoqlararo aloqalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

“Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda turizm sohasi bosqichma-bosqich bilim va tadqiqotlarga tayanadigan, innovatsion yondashuvlar ustuvor bo'lgan strategik faoliyat turiga aylanib bormoqda. Bu jarayon, ayniqsa, aniq hudud, turizm amaliyoti va bozor segmentlariga yo'naltirilgan innovatsion strategiyalarni shakllantirishda katta institutsional va ijtimoiy-iqtisodiy salohiyat yaratadi. Bunda inson kapitali, kreativ ko'nikmalar, shuningdek, muayyan hududlarda mavjud bo'lgan tabiiy, madaniy va sivilizatsion meros resurslarining o'zaro integratsiyasi hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi”<sup>10</sup>.

Dissertatsiyaning **“Turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishning metodologik asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobida turistik mahsulotni diversifikatsiya qilishning innovatsion strategiyasini tanlashda metodologik yondashuvlar, turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishning baholash usullari hamda turistik xizmatlarning diversifikatsiya strategiyasini shakllantirishning ijtimoiy-iqtisodiy holatini o'rganishning uslubiy jihatlari tadqiq qilingan.

Turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish strategiyasini ishlab chiqishda hududiy yondashuvni qo'llash muhim metodologik ahamiyatga ega. Buning sababi shundaki, O'zbekistonga turli hududlari tabiiy-geografik sharoiti, madaniy-tarixiy merosi, infratuzilmaviy rivojlanish darajasi va iqtisodiy salohiyati sezilarli farqlarga ega bo'lib, ushbu omillar turistik xizmatlar diversifikatsiyasining yo'nalishlari va mexanizmlarini differensial tarzda belgilashni talab qiladi.

Fikrimizcha, turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishning iqtisodiy samaradorligini baholash ko'rsatkichlar tizimini ilmiy asosda shakllantirish maqsadga muvofiq. Chunki diversifikatsiya jarayoni faqat xizmatlar turlarining ko'payishi bilan emas, balki ularning iqtisodiy mazmuni, qo'shimcha qiymat yaratish salohiyati va hududiy iqtisodiyotga ta'siri bilan tavsiflanadi. Shularni inobatga olgan holda, diversifikatsiya samaradorligini baholashda quyidagi iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimli va o'zaro bog'liq holda tahlil qilinishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

**Turizm xizmatlari xajmining diversifikatsiyalangan o'sish ko'rsatkichi** – diversifikatsiya natijasida turizm xizmatlari umumiy hajmining qanchalik barqaror va tarkibiy jihatdan ko'payishini ifodalab, ushbu xizmat turlari kesimida hisoblanib, diversifikatsiyaning ekstensiv emas, balki intensiv o'sishiga xizmat qilayotganini ko'rsatadi:

$$TG = \frac{\sum_{i=1}^n Q_{i,t} - \sum_{i=1}^n Q_{i,t-1}}{\sum_{i=1}^n Q_{i,t-1}} \quad (1)$$

---

<sup>10</sup>Ромао, Дж.; Нийкам, П. Влияние инноваций, производительности и специализации на конкурентоспособность туризма — пространственный эконометрический анализ европейских регионов. *Текущие проблемы туризма*. 2017, 1–20.

Bu yerda,

$Q_{i,t}$  –  $t$  – joriy yilda  $i$ - turizm xizmatlar hajmi;

$Q_{i,t-1}$  – o‘tgan yilda  $i$ - turizm xizmatlar hajmi;

$n$  – xizmat turlari soni.

Ushbu ko‘rsatkich diversifikatsiyaning intensiv o‘shish modeliga xizmat qilib, turizm xizmatlarining sifat jihatdan rivojlanayotganligini ko‘rsatadi. Agar  $TG$  qiymati xizmat turlari soni ortishi bilan bir vaqtda o‘shish kuzatilsa, diversifikatsiya iqtisodiy jihatdan samarali ekanligini ilmiy asosda isbotlash mumkin.

**Turizmdan olinadigan daromadlar tarkibining diversifikatsiyasi** – iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Daromadlar ma‘lum bir turizm turiga yuqori darajada bog‘lanib qolgan holatda, tashqi iqtisodiy omillar, mavsumiylik yoki bozor konyukturasi o‘zgarishi turizm sohasining barqarorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

$$RDI = 1 - \sum_{i=1}^n r_i^2 \quad (2)$$

Bu yerda,  $r_i$  – turizm xizmati turining umumiy turizm daromadidagi ulushi.

Mazkur indeks turizm daromadlarining qay darajada diversifikatsiyalashganligini ko‘rsatib, iqtisodiy tavakkalchilik darajasini baholash imkonini beradi.  $RDI$  qiymatining oshishi turizm sohasida daromad manbalarining ko‘pligi va ularning o‘zaro muvozanatda ekanligini anglatadi.

**Turizmda qo‘shimcha qiymat yaratish indeksi** – diversifikatsiyaning iqtisodiy mazmuni xizmatlar sonining ko‘payishi bilan cheklanib qolmasdan, ularning iqtisodiy qiymati va qo‘shimcha qiymat yaratish salohiyati bilan belgilanadi. Shu sababdan, qo‘shimcha qiymat indeksi turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish samaradorligini baholashda markaziy o‘rin tutadi.

$$VAI = \frac{VA_t}{TR_t} \quad (3)$$

Bu yerda,

$VA_t$  – turizm sohasida yaratilgan qo‘shimcha qiymat;

$TR_t$  – turizmda olingan umumiy tushum.

Ushbu ko‘rsatkich asosida turizm xizmatlarining qanchalik yuqori qiymatli segmentlarga yo‘naltirilganligini aniqlash mumkin.  $VAI$  qiymatining o‘shishi turizmda innovatsion, bilimga asoslangan va noan‘anaviy xizmatlar ulushi ortib borayotganligini anglatadi.

**Turizm investitsiyalarining samaradorlik indeksi.** Turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish, ayniqsa innovatsion yo‘nalishlar, investitsiya faolligisiz amalga oshmaydi, shuning uchun investitsiyalarning qaytish darajasini baholash diversifikatsiya samaradorligini tahlil qilishda muhim metodologik vosita hisoblanadi.

$$ROI_t = \frac{TR_t - IC_t}{IC_t} \quad (4)$$

Bu yerda,  $IC_t$  – turizm sohasiga kiritilgan investitsiyalar.

Innovatsion va yuqori qiymatli xizmatlarga yo'naltirilgan investitsiyalar, odatda, uzoq muddatli va barqaror iqtisodiy natijalarni ta'minlaydi. Shu jihatdan, ROI ko'rsatkichi diversifikatsiya strategiyasining moliyaviy asoslanganligini baholashga xizmat qiladi.

**Turizm sohasining hududiy iqtisodiyotdagi indeksi.** Turizm xizmatlari diversifikatsiyasining hududiy iqtisodiy ahamiyatini baholashda turizmning YaHM (yoki YaHM ga yaqin ko'rsatkich)dagi ulushi hisoblanadi.

$$TSI = \frac{TR_t}{GRP_t} \quad (5)$$

Bu yerda,  $GRP_t$  – hududiy yalpi mahsulot.

O'zbekiston sharoitida mazkur ko'rsatkich turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish orqali hududiy iqtisodiyot tarkibini kengaytirish, tarmoqlararo bog'liqlikni kuchaytirish va iqtisodiy manbalarni ko'paytirish imkoniyatini ilmiy asosda ochib beradi.

**Iqtisodiy ko'rsatkichlarni integral baholash modeli.** Yuqorida keltirilgan iqtisodiy ko'rsatkichlarning har biri diversifikatsiyaning muayyan jihatini aks ettiradi, lekin ularni alohida qo'llash diversifikatsiya samaradorligini to'liq ifodalaymaydi. Shunga ko'ra, iqtisodiy samaradorlikni baholashda integral indeksdan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

$$EDI = \sum_{j=1}^m w_j \cdot E_j \quad (6)$$

Bu yerda,

$E_j$ - normallashtirilgan iqtisodiy ko'rsatkichlar (TG, RDI, VAI, ROI, TSI);

$w_j$  - vazn koeffitsientlari.

Fikrimizcha, turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishning iqtisodiy samaradorligini baholashda ko'rsatkichlar tizimi ko'p o'lchamli va iyerarxik tarzda shakllantirilishi maqsadga muvofiq. O'zbekiston sharoitida ham diversifikatsiya faqat xizmatlar sonining ortishi bilan emas, balki qo'shimcha qiymat yaratish, investitsiya samaradorligi va hududiy iqtisodiyotga ta'siri orqali baholanishi ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi. Bu yondashuv halqaro amaliyotda ham "barqaror turizmni baholashning asosiy yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilgan"<sup>11</sup>.

Dissertatsiyaning "**Turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishning innovatsion usullari samarasini baholash**" deb nomlangan uchinchi turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishning samaradorligiga ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlar tahlili, O'zbekiston hududlarida turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish hamda demografik omillar asosida turizm xizmatlari iste'molchilarini segmentlashtirish va diversifikatsiya holatining tahlili amalga oshirilgan.

Tadqiqot natijalari asosida "Har to'rt faslda sayohat" tashabbusi doirasida bahor, yoz, kuz va qish turizm mavsumlarining ochilishiga bag'ishlangan festival tadbirlarini o'tkazish jarayonida respublikaning ekologik, ekstremal, agro-, gastronomik, tibbiy va sog'lomlashtirish, plyaj va suvda dam olish, madaniy-ma'rifiy, ko'ngilochar turizm hamda tog'-chang'i kurortlari salohiyatini namoyish etish va targ'ib qilish maqsadida turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish

---

<sup>11</sup> UNWTO. Tourism and Economic Growth. 2020.

samaradorligiga ta'sir etuvchi integral ko'rsatkichlar tizimi taklif etildi. Mazkur integral tizim turizm sohasining funksional rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, ijtimoiy, institutsional, infratuzilmaviy va innovatsion ko'rsatkichlar majmuasidan iborat bo'lib, ularning har biri alohida baholash mezonlari hamda agregatsiyalash usullari orqali sistematik tarzda hisoblanadi (1 - jadval).

1 -jadval

**Turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishning samaradorligiga ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlar va ularni hisoblash usullari<sup>12</sup>**

№	Integral ko'rsatkich	Hisoblash formulasi
1	Moliyaviy samaradorlikning integral indikator	$MS = \beta_1 F^* + \beta_2 D_A^* + \beta_3 D_K^* + \beta_4 D_S + \beta_5 X_q^* + \beta_6 G^*$ $\beta_{1,2,3,4,5,6}$ – tegishli vaznlar $F^*$ – normallashtirilgan foyda, $D_A^*$ – daromad tarkibida aktivlar ulushi (normallashtirilgan), $D_K^*$ – daromad tarkibida kapital ulushi $D_S$ – daromad tarkibida sotuvlar ulushi, $X_q^*$ – xizmat ko'rsatish xarajatlarining qaytarilishi (normallashtirilgan), $G^*$ – daromadning o'sish sur'ati (normallashtirilgan)
2	Xizmat ko'rsatish samaradorligining integral indikator	$XS = \gamma_1 P + \gamma_2 X_C + \gamma_3 X_{xodim} + \gamma_4 Innov$ $\gamma_{1,2,3,4}$ – tegishli vaznlar, $P$ – mehnat unumdorligi, $X_C$ – xizmat quvvatidan foydalanish darajasi, $X_{xodim}$ – xizmat quvvatidan foydalanish darajasi, $Innov$ – innovatsiya darajasi
3	Resurslardan foydalanish samaradorligi integral indikator	$RS = \vartheta_1 E + \vartheta_2 O + \vartheta_3 R^* + \vartheta_4 CH$ $\vartheta_{1,2,3,4}$ – tegishli vaznlar, $E$ – energiya sarfining xizmat hajmidagi ulushi, $O$ – suv sarfining xizmatlar hajmidagi ulushi, $R^*$ – xomashyodan foydalanish samaradorligi, $CH$ – chiqindilarning qayta ishlanish darajasi
4	Diversifikatsiya indeksi	$DI = \theta_1 MS + \theta_2 XS + \theta_3 RS$ $\theta_{1,2,3}$ – tegishli vaznlar, $MS$ – moliyaviy samaradorlik integral ko'rsatkichi, $XS$ – xizmat ko'rsatish samaradorligi integral ko'rsatkichi, $RS$ – resurslardan foydalanish samaradorligi integral ko'rsatkichi, $DI$ – diversifikatsiya indeksi

Ushbu indeks vaznlarining hisoblanishi ekspertlardan so'rovnomaga o'tkazish asosida amalga oshirildi. Turizm sohasida ish tajribasi 10 yildan oshgan 10 ta ekspertning har bir ko'rsatkichning ahamiyati bo'yicha bergan ballari asosida umumiy ballarga nisbatan ulushi aniqlandi. Ya'ni diversifikatsiya indeksi quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$DI = 0.43MS + 0.3XS + 0.27RS, \quad (7)$$

bu yerda:

$DI$  – Diversifikatsiya indeksi;

$MS$  – Moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlari;

$XS$  – Xizmat ko'rsatish samaradorligi;

$RS$  – Resurlardan foydalanish samaradorligi.

<sup>12</sup> Muallif ilmiy-tadqiqotlari asosida tayyorlandi.

O‘z navbatida moliyaviy samaradorlikning integral ko‘rsatkichi quyidagi formulaga asosan hisoblanadi:

$$MS = 0.19F^* + 0.16D_A^* + 0.14D_K^* + 0.15D_S + 0.17X_q^* + 0.19G^* \quad (8)$$

Bu yerda,

$\beta_{1,2,3,4,5}$  – tegishli vaznlar;

$F^*$  – normallashtirilgan foyda;

$D_A^*$  – daromad tarkibida aktivlar ulushi (normallashtirilgan);

$D_K^*$  – daromad tarkibida kapital ulushi;

$X_q^*$  – xizmat ko‘rsatish xarajatlarining qaytarilishi (normallashtirilgan);

$G^*$  – daromadning o‘shish sur‘ati (normallashtirilgan).

Formulada ayrim ko‘rsatkichlarni 0 va 1 oralig‘iga keltirish uchun normallashtirish amalga oshirildi. Normallashtirish formulasi quyidagicha:

$$X^* = \frac{X - X_{min}}{X_{max} - X_{min}} \quad (9)$$

$X^*$  – normallashtirilgan ko‘rsatkich (0 va 1 oralig‘idagi qiymatlarni qabul qiladi);

$X$  – ko‘rsatkichning real qiymati;

$X_{min}$  – shu ko‘rsatkichning minimal qiymati;

$X_{max}$  – shu ko‘rsatkichning maksimal qiymati.

Xizmat ko‘rsatish samaradorligi integral ko‘rsatkichi ham vaznli yig‘indi ko‘rinishida hisoblangan va ekspertlardan olingan so‘rovnoma asosida uning formulasini quyidagicha yozish mumkin:

$$XS = 0.28P + 0.24X_C + 0.23X_{xodim} + 0.25Innov \quad (10)$$

$P$  – mehnat unumdorligi;

$X_C$  – xizmat quvvatidan foydalanish darajasi;

$X_{xodim}$  – ishchi kuchidan foydalanish darajasi;

$Innov$  – innovatsiya darajasi.

Resurslardan foydalanish darajasi integral ko‘rsatkichi ham xuddi shunday ko‘rsatkichlarning kaznli yig‘indisi asosida hisoblangan va 1-ilovaga muvofiq quyidagi formula orqali ifodalanishi mumkin:

$$RS = 0.28E + 0.25O + 0.27R^* + 0.2CH \quad (11)$$

$E$  – energiya sarfining xizmat hajmidagi ulushi;

$O$  – suv sarfining xizmatlar hajmidagi ulushi;

$R^*$  – xomashyodan foydalanish samaradorligi;

$CH$  – chiqindilarning qayta ishlanish darajasi.

Umuman olganda, diversifikatsiya darajasini baholashda moliyaviy samaradorlik ko‘rsatkichlari eng muhim ekanligi aniqlandi. Fikrimizcha, diversifikatsiya indeksi quyidagicha klassifikatsiyalanishi lozim:

$DI < 0.4$  Juda past samaradorlik: diversifikatsiya tavsiya etilmaydi;

$0.4 \leq DI < 0.6$  O‘rtacha samaradorlik: faqat bozor talabiga qarab qisman diversifikatsiya;

$DI \geq 0.6$  Yuqori samaradorlik: yangi xizmat turlarini joriy etish maqsadga muvofiq.

Bugungi kunda turizm sohasi jahon iqtisodiyotining yirik tarmoqlaridan biri bo'lib, yildan-yilga faol rivojlanishda davom etmoqda. Turizm bo'yicha tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, so'nggi 30 yilda turistlar soni 4 barobar, turizm industriyasidan tushgan daromad esa shu vaqt ichida 25 barobar oshgan. Ayni paytda dunyodagi 40 ta mamlakatda turizm sohasi byudjetning asosiy manbasi hisoblanadi va yana 70 ta mamlakat byudjetining uchdan bir qismini tashkil qilmoqda.

2-jadval

### 2024-yilning turistik sayohatlar sonining maqsadlar bo'yicha taqsimlanishi<sup>13</sup>

Turistik sayohatlarning maqsadlari	O'zbekistonga kelgan xorijiy sayohatchilarning maqsadlari		O'zbekistondan chiqib ketgan sayohatchilarning maqsadlari	
	Jami	Jamiga nisbatan % da	Jami	Jamiga nisbatan % da
<b>Turistik yo'nalishlar</b>	<b>7 957,2</b>	<b>100</b>	<b>6 183,8</b>	<b>100</b>
Biznes	338,5	4,3	13,7	0,2
Ta'lim	25,1	0,3	35,9	0,6
Dam olish va rekreatsiya	1 184,4	14,9	949,4	15,3
Sog'inish-qumsash	6 105,3	76,7	5 123,9	82,9
Tibbiy	104,9	1,3	60,9	1,0
Savdo	199,0	2,5	-	-

Jadval ma'lumotlari (2-jadval) tahliliga ko'ra, mamlakatimizga 2024-yilda tashrif buyurgan xorijiy turistlar oqimida asosiy ulushni (76,7%) qarindoshlarni yo'qlash maqsadida kelgan turistlar tashkil etgan. Dam olish va rekreatsiya maqsadida keluvchilar ulushi 2024-yilda 14,9 % ni tashkil etgan. Bu O'zbekistonning turizm industriyasidagi mavqe'ini mustahkamlash va rekreatsion infratuzilmani rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Biznes va tibbiy turizm koeffitsientlari nisbatan past bo'lib, ular mos ravishda 4,3% va 1,3% ga tengdir. 2024-yilda O'zbekiston fuqarolarining xorijga chiqish dinamikasini tahlil qilish natijasida ham shunga o'xshash dinamika kuzatildi. Turistlarning 83,3 %i qarindoshlarni ziyorat qilish maqsadida safarga chiqishgan. Dam olish maqsadida safar qiluvchilarning ulushi 15,6% ni tashkil qilgan.

Dissertatsiyaning "**Hududlarda turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishni takomillashtirish yo'llari**" deb nomlangan to'rtinchi bobida turizm faoliyatini diversifikatsiya qilishning gibridd modellarida turizm korxonalarini samaradorligini oshirish mexanizmlari, O'zbekistonda inklyuziv turizmni tashkil etish orqali turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishni hamda hududlarda xalqaro turizm xizmatlarini raqamli platformalar asosida diversifikatsiya qilish mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari belgilanishi asosida turizmni milliy iqtisodiyotning strategik sektori sifatida rivojlantirishda diversifikatsiya jarayonining ta'siri baholanib, prognoz parametrlari ishlab chiqarilgan.

<sup>13</sup> O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Bizningcha, turizm sohasi uchun, narxlarni diversifikatsiya qilish usuli ham muhim ahamiyatga ega, chunki turli moliyaviy imkoniyatlarga ega bo‘lgan potensial iste’molchilarni maksimal darajada jalb qilish orqali bozorning eng katta segmentini qamrab olish uchun turlar tomonidan qo‘llaniladigan narx strategiyasini qo‘llash mumkin. Bu o‘z navbatida xaridorlarning turli toifalari uchun har xil narx darajalarini belgilashni o‘z ichiga oladi.

3-jadval

**Turizm xizmatlar xizmatlarini diversifikatsiya qilish doirasida joylashtirish vositalarini moliyalashtirish mexanizmi<sup>14</sup>**

Turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish jarayonida tarmoqning ixtisoslashuvini chuqurlashtirish, turistlar oqimini oshirish hamda mavsumdan tashqari davrlarda ham jozibador va maxsus turistik yo‘nalishlarni shakllantirishni moliyalashtirish				
<b>Turar joy obyektlari nomi</b>	<b>Moliyalashtirish summasi (mln.so'm)</b>	<b>Foiz stavkasi</b>	<b>Muddati</b>	<b>Imtiyozli davr</b>
Chodirlar (kempinglar)	100	Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasi +4%	5 yil	1 yil
O‘tovlar	300			
Ekouylar	500			
Konteynerlar	600			
Xostellar	1000			
Glempinglar	1500			
Modulli mehmonxonalar va avtokemping lagerlari (kamida 10 ta avtokemping)	3000			

Turizm sohasini diversifikatsiya qilish sharoitida joylashtirish infratuzilmasini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mexanizm turizm tarmog‘ining ixtisoslashuvini kengaytirish, turistlar oqimini ko‘paytirish hamda mavsumiy tebranishlarni yumshatish orqali yil davomida barqaror faoliyatni ta‘minlashga qaratilgan.

Dastur doirasida turli formatdagi joylashtirish vositalari – kempinglar, o‘tovlar, eko-uylar, konteyner asosidagi turar joylar, xostellar, glempinglar va modulli mehmonxonalar – uchun moliyalashtirish miqdorlari obyektning qurilish qiymati, texnik jihozlanish darajasi va infratuzilmaviy talablaridan kelib chiqqan holda belgilangan (3-jadval). Bunday tabaqalashtirilgan yondashuv investitsiya resurslaridan samarali foydalanish imkonini yaratadi.

Turli formatdagi joylashtirish vositalarini moliyalashtirish (kempinglar, eko-uylar, glempinglar, modulli mehmonxonalar va boshqalar) xizmat turlarini ko‘paytirishga xizmat qiladi. Bu esa an’anaviy mehmonxona modeli bilan cheklanib qolmasdan, turli ehtiyoj va moliyaviy imkoniyatga ega turistlar uchun mos variantlarni shakllantiradi. Shu jihatdan mazkur yondashuv mahsulot diversifikatsiyasining amaliy ifodasi hisoblanadi.


<sup>14</sup> Muallif ilmiy-tadqiqotlari asosida ishlab chiqildi.

Mavsumdan tashqari faoliyat yuritish imkoniyatiga ega infratuzilmani rivojlantirish esa talabni yil davomida muvozanatlashtirishga sharoit yaratadi. Bu holat bozor diversifikatsiyasini ta'minlab, turistik oqimning faqat mavsumiy davrlarga bog'lanib qolishini cheklaydi.

Kreditlash shartlarida uzoq muddat va imtiyozli davrning belgilanishi investitsiya loyihalarini amalga oshirishni yengillashtiradi. Bunday mexanizm davlat moliyaviy siyosatini xususiy tadbirkorlik tashabbusi bilan uyg'unlashtirish orqali institutsional diversifikatsiyani ta'minlaydi.

Tadqiqot natijasida turizm korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish va xizmatlar turini kengaytirish maqsadida gibril diversifikatsiya modeli taklif etildi. Ushbu model turizmdagi an'anaviy gorizontil va vertikal diversifikatsiya usullarini birlashtiruvchi innovatsion yondashuv bo'lib, xizmat zanjirining barcha bosqichlarida sinergetik samara beradi.

“Hibril diversifikatsiya” modeli gorizontil (mavjud faoliyat bilan bog'liq yangi turizm xizmatlarini joriy etish (masalan, mehmonxona o'z mijozlariga SPA, gastroturizm yoki VR-ekskursiya xizmatini taklif etadi) hamda vertikal (xizmat zanjiri bo'ylab yuqori yoki quyi bosqichda faoliyatni kengaytirish (masalan, turopereator o'z mehmonxonasi yoki transport korxonasini tashkil qiladi (2-rasm). Bu ikki yo'nalish birlashganda, korxonil boshqaruv, investitsiya va xizmat ko'rsatishda integratsiyalashgan tizimga aylanadi.



**2-rasm. Turizm korxonalarida “Hibril diversifikatsiya” modeli<sup>15</sup>**

Tadqiqot natijasida turizm korxonalarini rivojlantirishda yangi yondashuv – “Hibril diversifikatsiya” modeli ilk bor ilmiy asosda ishlab chiqildi. Model gorizontil va vertikal diversifikatsiya usullarini integratsiyalash orqali xizmat zanjirini yagona innovatsion tizimga birlashtiradi. Bu esa o'z navbatida turizm sohasida barqaror rivojlanishni, raqobatbardoshlikni oshirish va mijozlar ehtiyojlarini to'liq qondirishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, turistik korxonalarda

<sup>15</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

xizmat zanjirini integratsiyalash orqali kompleks biznes-ekotizim yaratiladi. Mazkur diversifikatsiya turizm sohasidagi mavsumiylik muammosini kamaytirishga, daromad manbalarini barqarorlashtirishga va korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra "C.A.T.I.A" turistik kompaniyasi faoliyatida quyidagi 4-jadvalda keltirilgan gibridd diversifikatsiya yo'nalishlarini joriy etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Biz taklif qilayotgan modelni amaliyotda qo'llash maqsadida O'zbekistonda yirik turoperatorlardan biri bo'lgan "C.A.T.I.A" turistik firmasi tanlab olindi. Ushbu turistik firmaning asosiy faoliyati madaniy va tarixiy merosga asoslangan sayyohlik turlarini tashkil etishdan iborat. Kompaniyaning asosiy yo'nalishlari Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent shaharlariga yo'naltirilgan ichki va xalqaro turlarni qamrab oladi.

4-jadval

**"C.A.T.I.A" turistik kompaniyasining gibriddlangan diversifikatsiya yo'nalishlari<sup>16</sup>**

T/r	Diversifikatsiya yo'nalishlari	Turlari	Mazmuni	Kutilgan natija
1	Agroturizm, qishloq turizmi	Bog'liq diversifikatsiya	Qishloq hududlarida fermer xo'jaliklari bilan hamkorlikda qishloq turizmini tashkil etish	Milliy iqtisodiyot bilan integratsiya va yangi mahsulot yaratish
2	Smart turizm (raqamli turizm)	Bog'liq diversifikatsiya	C.A.T.I.A.GO.uz. platformasi orqali onlayn bron qilish va virtual tur xizmatlarini yo'lga qo'yish	Raqamli bozor segmentini qamrab olish, foydalanuvchi sonini oshirish
3	Mehmonxona va milliy kafe ochish	Bog'liq diversifikatsiya	Turistlar uchun kompleks xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmani yaratish	Xizmatlar zanjirini to'liq integratsiya qilish
4	Suvenir va mahalliy mahsulotlar ishlab chiqish	Bog'liq diversifikatsiya	Milliy hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish	Brend yaratish va qo'shimcha daromad manbaiga ega bo'lish
5	Turizm ta'limi va konsalting	Bog'liq bo'lmagan diversifikatsiya	Turizm menejmenti va gidlik sohasida malaka oshirish kurslarini tashkil etish	Yangi bozor yo'nalishi va kadrlar tayyorlash tizimi

Ushbu korxonada gibridd diversifikatsiya samaradorligini joriy etish jarayonida ushbu turistik firmaning iqtisodiy, innovatsion va ijtimoiy natijalari kompleks baholandi. Samaradorlikni baholashda faqat moliyaviy ko'rsatkichlar emas, balki xizmat sifati, mijozlar qoniqishi, bozor ulushining o'zgarishi va xizmatlar zanjirining integratsiya darajasi kabi ko'p omilli mezonlar ham hisobga olindi.

Hisob-kitoblar natijasida sof foyda ko'rsatkichlari 2024-yilga nisbatan 58 foizga o'sganini ko'rish mumkin. Bu esa, moliyaviy barqarorlik parametrlarining mustahkamlanganligini tasdiqlaydi. Gibridd divesifikatsiya strategiyasini amalga

<sup>16</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

oshirish natijasida turistik firmaning investitsiya samaradorligi joriy yilda 46,7 foizga teng bo'lib, ushbu natija firma uchun yuqori investitsion faollik va kapitalning tez aylanishiga olib keladi. Rentabellik darajasi ham 2024-yilga nisbatan 22,6 foizga oshib, turistik firmaning iqtisodiy faoliyati yuqori darajada samarali amalga oshirilganini ko'rsatadi. Shuningdek, turistik firma tomonidan yaratilgan qo'shimcha qiymat va operatsion faoliyatdan olinayotgan sof foyda ulushining yuqoriligidan dalolat beradi. Bozor ulushining o'tgan yilga nisbatan 45,8 foizga o'sishi orqali turistik firmaning turizm xizmatlari segmentida raqobat pozitsiyalarini mustahkamlanganligini, strategik bozorlarni o'zlashtirishda izchil yondashuvlar qo'llanganligini ko'rsatadi. Shuningdek, yangi turistik yo'nalishlarining tashkil etilishi mijozlar qoniqishining 16,7 foizga oshishiga olib kelganligini kuzatish mumkin.

Modelning umumiy samaradorligini kompleks baholash uchun integral indeks quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K_i = \alpha_1 K_{iqt.} + \alpha_2 K_{sif.} \quad (12)$$

Bu yerda :  $K_{iqt.}$  – iqtisodiy samaradorlik indeksi (daromad, ROI, foyda o'sishi bo'yicha normallashtirilgan o'rta qiymat);

$K_{sif.}$  – noiqtisodiy samaradorlik indeksi (mijozlar qoniqishi va innovatsiya o'sishi bo'yicha);

$\alpha_1 = 0,7$ ,  $\alpha_2 = 0,3$  – vazn koeffitsiyentlari.

Agar  $K_i > 1$  bo'lsa, gibril diversifikatsiya samarali,  $K_i = 1$  bo'lsa, neytral ta'sir,  $K_i < 1$  bo'lganda esa diversifikatsiya samarasiz hisoblanadi.

Xisob- kitoblarimiz natijasida:

$$K_i = 0,7(1,48) + 0,3(1,18)$$

$$K_i = 1,39$$


$K_i = 1,39 > 1$  bo'lganligi sababli, ushbu turistik firmada gibril diversifikatsiya modeli samarali ekanligi aniqlandi.

Bugungi kunda hukumat tomonidan turizm sohasiga milliy iqtisodiyotning strategik sektori maqomining berilishi ushbu tarmoqning istiqboldagi rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Shu munosabat bilan, O'zbekiston bo'ylab sayohat qiluvchi mahalliy xorijiy turistlarga sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlash maqsadida yaratilayotgan turistik marshrutlarning jozibadorligini oshirish hamda bu orqali milliy turistik mahsulotlarga bo'lgan va qiziqishni kuchaytirish dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda.

Globalashuv sharoitida transchegaraviy turistik almashinuvni institutsional va iqtisodiy mexanizmlar asosida takomillashtirish milliy turizm tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlashda ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, xorijiy turistlar oqimini 15,8 million nafarga yetkazish va turizm xizmatlari eksportini 4 milliard AQSh dollarigacha oshirish strategik maqsadlariga erishish uchun kompleks, ko'p bosqichli va integratsiyalashgan yondashuvni joriy etish zarur.

Tadqiqot doirasida taklif etilayotgan konseptual yondashuv transchegaraviy sayyohlik almashinuvini diversifikatsiya qilishning yangi xalqaro mexanizmiga asoslanadi. Ushbu mexanizmning amaliy asosi sifatida quruqlikdagi davlat chegara postlarida mamlakatning turistik salohiyatini tizimli ravishda namoyish etuvchi “Turizm burchagi” infratuzilmasini tashkil etish nazarda tutiladi. Mazkur element chegara hududlarini faqat tranzit nuqta emas, balki turistik qaror qabul qilish nuqtasiga aylantirish orqali turistik mahsulotni to‘g‘ridan-to‘g‘ri targ‘ib qilish va ichki hududlarga yo‘naltirilgan oqimni rag‘batlantirish funksiyasini bajaradi.

Buyuk ipak yo‘li merosiga tayangan holda “Zarafshan–Karakum Tourism Corridor” usuli asosida “Zarafshon – Qoraqum yo‘lagi” transchegaraviy turistik marshrutini shakllantirish taklif etiladi. Mazkur usul hududiy resurslar, transport-kommunikatsiya infratuzilmasi va madaniy-tarixiy ob‘ektlarni yagona logistik va marketing zanjiriga integratsiya qilish orqali sinergetik samara hosil qilishni nazarda tutadi. Natijada, turistik makon fragmentar rivojlanishdan klasterlashgan va koridor tamoyiliga asoslangan tizimli modelga o‘tadi.




**3-rasm. O‘zbekiston turizmini sinxronlashtirilgan yangi strategik vektor asosida rivojlantirish yo‘nalishlari<sup>17</sup>**

Tadqiqotda ushbu yondashuv Shanxay hamkorlik tashkiloti davlatlari turizm xizmatlari bozori bilan o‘zaro integratsiya jarayonlari orqali asoslandi. Ya’ni, a’zo davlatlardan chiquvchi turistlar oqimini muvofiqlashtirish, qo‘shma loyihalar va investitsion dasturlar doirasida yagona marshrut paketlarini shakllantirish orqali O‘zbekiston turizmining rivojlanishida sinxronlashtirilgan, ko‘p tomonlama hamkorlikka asoslangan yangi strategik vektor shakllantiriladi. Bu esa turizmni diversifikatsiya qilishning gibril modeli – mahsulot, bozor va institutsional diversifikatsiyaning o‘zaro uyg‘unlashgan shaklini namoyon etadi.

<sup>17</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Transchegaraviy sayyohlik almashinuvi imkoniyatlarini rivojlantirishda turizmni diversifikatsiya qilishning yangi xalqaro mexanizmi sifatida Shanxay hamkorlik tashkiloti davlatlari turizm xizmatlar bozorida samarali foydalanishda chiquvchi turistlar oqimi jarayonlarini davlatlarning xorijiy loyihalari va dasturlari orqali O‘zbekiston turizmini yanada sinxronlashtirilgan yangi vektori tavsiya qilindi (3-rasm).

Shu bilan birga, gastronomik turizmni transchegaraviy miqyosda rivojlantirish maqsadida “GastroSCO Map” raqamli platformasini ishlab chiqish taklif etiladi (4-rasm). Mazkur platforma ShHT davlatlarining milliy taomlari, gastronomik festivallari va tematik marshrutlarini yagona raqamli xarita asosida birlashtirib, turistik axborot almashinuvini tezlashtiradi, marketing samaradorligini oshiradi va xizmatlar eksporti hajmini ko‘paytirishga xizmat qiladi. Raqamli platforma transchegaraviy kooperatsiyaning texnologik infratuzilmasi sifatida amal qiladi.



**4-rasm. “GastroSCO Map” modeli asosida ShHT davlatlarida gastronomik turizmni rivojlantirishda qiymat yaratish zanjiri<sup>18</sup>**

Har bir davlatning milliy oshxonasi mazkur marshrutning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. “GastroSCO Map” raqamli interaktiv xarita sifatida ishlab chiqilib, ushbu platforma har bir turistik nuqta haqidagi ma’lumotlar QR-kodlar orqali taqdim etilib, taom tarixi, tayyorlanish usuli va madaniy konteksti haqida

<sup>18</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

virtual ma'lumotlar beriladi. Bundan tashqari qo'shimcha reallik texnologiyalari asosida turistlar "virtual gastroturlar"ni amalga oshirish mumkin bo'ladi, bu esa nafaqat mintaqaning turistik tajribasini boyitishga xizmat qiladi, balki ma'lumotlarni raqamlashtirish orqali milliy gastronomik merosni saqlash va ommalashtirish imkonini yaratadi.

4-rasmda ShHT davlatlarida gastronomik turizmni rivojlantirish jarayonini "GastroSCO Map" raqamli platformasi asosida tashkil etishning qiymat yaratish zanjiri modeli sifatida ifodalaydi. Model gastronomik turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish jarayonini institutsional muvofiqlashtirishdan boshlab, raqamli integratsiya, iqtisodiy rag'batlantirish, hududiy ixtisoslashuv va xalqaro brendlashtirish bosqichlari orqali ketma-ket o'zaro bog'liq holda ochib beradi.

## MUKAMMAL INKLUZIV MILLIY TURIZM MODELI



**5-rasm. O'zbekistonda inkluziv turizmni rivojlantirishning milliy modeli<sup>19</sup>**

<sup>19</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

So‘nggi yillarda jahon turizm bozorida inklyuziv yondashuv tamoyillari muhim tendensiya sifatida namoyon bo‘lmoqda. Inklyuziv turizm jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar, keksalar, bolalar va boshqa maxsus ehtiyojli shaxslar uchun qulay, xavfsiz va barcha uchun ochiq bo‘lgan turizm muhitini yaratishni nazarda tutadi.

Mazkur yo‘nalishda respublikada turizm infratuzilmasidagi mavjud muammolarni hal etish, sohada ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va to‘siqsiz turizm yo‘nalishida davlat tomonidan nogironligi bo‘lgan fuqarolarga qo‘shimcha rag‘batlantirishlar yaratish maqsadida ming nafar I va II guruh nogironligi bo‘lgan fuqaroga O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qilish xarajatlarining 50 foizi hamda eshitish qobiliyatini yo‘qotgan nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun surdogidlar tayyorlash kurslari xarajatlarining 50 foizini qoplab berish asosida “Inklyuziv turizm modeli” ishlab chiqildi (5-rasm).

Mamlakatimizda inklyuziv turizm modeli amaliy natijalarini quyidagi ilmiy mezonlar asosida, ya’ni inklyuziv turistlar segmentining YaIM ga nisbiy hissasini quyidagi formula asosida aniqlash mumkin:

$$YAIM_{inklyuziv} = E_{ink} * p_{ink} * S_{avg,ink} * M \quad (13)$$

Bu yerda:

$E_{ink}$  – inklyuziv turistlar soni (yiliga);

$p_{ink}$  – inklyuziv turistlarning ulushi;

$S_{avg,ink}$  – bir inklyuziv turistning o‘rtacha sarfi;

$M$  – turizm iqtisodiy multiplikator koeffitsiyenti (turizm sarfi iqtisodiyotga qanday o‘z ta’sirini beradi, odatda 1,2 – 2,0)

Inklyuziv segmentning turizm sektorining umumiy YaIM ga nisbiy ulushi:

$$\tau_{inkluziv} = \frac{YAIM_{inkluzive}}{YAIM_{turizm}} * 100\% \quad (14)$$

Bu yerda,

$YAIM_{turizm}$  – turizm sohasining YaIM dagi ulushi;

$\tau_{inkluziv}$  – inklyuziv segmentning turizmdagi ulushi % da.

2024-yil uchun hisoblar asosida inklyuziv turizm uchun  $\tau_{inkluziv} \approx 37,1\%$  ekanligi aniqlandi. Xulosa qilib aytganda, agar inklyuziv turistlar soni 15% va ularning individual sarflari yuqori bo‘lsa (bank xizmatlari, gid-ekskursiya xizmatlari, maxsus transport, sog‘liqni tiklash va h.k), inklyuziv segment turizmning umumiy iqtisodiy qiymatining mutanosib katta qismi, ya’ni  $\tau_{inkluziv} \approx 37,1\%$  ini tashkil qilishi mumkin. Bu yuqori qiymat inklyuziv turistlar yuqori sarflaydigan va ishlab chiqarish zanjiriga ko‘p ta’sir qiluvchi segment ekanini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda turizm sohasi iqtisodiyotning yetakchi strategik sektoriga aylantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan bo‘lib, turistik-rekreasion xizmatlarni diversifikatsiya qilish orqali sohaning samaradorligini oshirish zarurati davlat darajasida ahamiyatga molik vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bilan birga, hududlarda turizm faoliyatini diversifikatsiya qilish jarayonining metodologiyasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish zamon talabidan kelib chiqqan ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

**O‘zbekiston Respublikasida diversifikatsiyalashgan turizm xizmatlariga talab va turizmni YaIMdagi ulushining prognoz ko‘rsatkichlari<sup>20</sup>**

	Ko‘rsatkich nomi	Prognoz uchun funksiyalar	Yillar					
			2025	2026	2027	2028	2029	2030
X <sub>1</sub>	Ichki turizm xizmatlariga tashqi talab, ming kishi	$X_1 = 2035,8 \times t^2 + 4798,2 \times t + 165301$	763237	835216,6	911267,8	993281	1080690	1172548
X <sub>2</sub>	Ta‘lim turizmi xizmatlariga tashqi talab, ming kishi	$X_2 = 0,0584 \times t^3 - 0,9436 \times t^2 + 4,551 \times t + 4,1967$	23,8	32,2	43,2	49,8	57,6	66,7
X <sub>3</sub>	Ishbilarmonlik turizmi xizmatlariga tashqi talab, ming kishi	$X_3 = 0,4015 \times t^2 - 2,0021 \times t + 25,993$	59,8	67,8	76,7	86,3	97,4	110,1
X <sub>4</sub>	MICE turizm xizmatlariga tashqi talab, ming kishi	$X_4 = 2,7405 \times t^2 - 34,791 \times t + 180,48$	157,6	191,3	230,5	270,8	315,4	365,9
X <sub>5</sub>	Sog‘lomlashtirish turizmi xizmatlariga tashqi talab, ming kishi	$X_5 = -0,196 \times t^3 + 5,1626 \times t^2 - 36,905 \times t + 111,88$	73,7	74,0	79,3	85,4	92,1	99,5
X <sub>6</sub>	Nostalgik turizm xizmatlariga tashqi talab, ming kishi	$X_6 = 29,003t^3 - 479,83t^2 + 2562,1t - 1357,4$	10409,5	14578,2	20049,6	27500	37700	51700
X <sub>7</sub>	Rekreasion turizm xizmatlariga tashqi talab, ming kishi	$X_7 = 54,154 \times t^2 - 855,85 \times t + 3422,2$	950,2	1448,2	2054,5	2660	3445	4460
Y	Turizmning YaIMdagi ulushi, %	$Y = 0,459 - 2,57E-6 \times X_1 + 0,009 \times X_3 + 0,012 \times X_4 - 0,001 \times X_5 + 0,0002 \times X_6 + 0,001 \times X_7$	3,9	5,5	7,6	9	10,8	12,9

SPSS 19 dasturiy paket imkoniyatlaridan foydalangan holda, prognozlashga oid analitik tenglamalar ishlab chiqildi va natijada 2025-2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasida diversifikatsiyalashgan turizm xizmatlariga talab va turizmni YaIMdagi ulushining prognoz parametrlari ishlab chiqildi (5-jadval).

Shunday qilib, mamlakatimiz turizm bozorida ijobiy o‘shish tendensiyalari prognozlashtirildi. Tahlil natijalariga ko‘ra, 2025-2030-yillar davomida O‘zbekistonda turizm xizmatlarini diversifikatsiyalash orqali ishbilarmonlik turizmi xizmatlariga tashqi talabning o‘rtacha yillik 22,9 %, MICE turizm xizmatlariga

<sup>20</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

tashqi talabning o‘rtacha yillik 18,3 %, nostalgik turizm xizmatlariga tashqi talabning o‘rtacha yillik 37,8 %, rekreasion turizm xizmatlariga tashqi talabning o‘rtacha yillik 36,2 % bilan o‘shirishni ta’minlab, mamlakatimizda turizm sektorining YalMdagi ulushini 2030 yilga kelib 12,9 foizga etishiga sharoit yaratadi.

## XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosa, ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda olimlar tomonidan xizmatlar sektori hamda turizm sohasida diversifikatsiyaning turli xil nazariy yondashuvlari keltirilgan. Ushbu nazariy yondashuvlar asosida turizm diversifikatsiyasini xizmatlar sektoridagi umumiy diversifikatsiyadan mustaqil ilmiy kategoriya sifatida ko‘rib chiqish zaruriyatini belgilaydi. Bir qator olimlar tomonidan keltirilgan nazariy qarashlarni umumlashtirib, xizmatlar sektori hamda turizm sohasidagi diversifikatsiyaning asosiy farqlarini ajratib ko‘rsatildi.

2. Turizm sub’ektlarining raqobatbardoshligini oshirish, iste’molchi ehtiyojlarini qondirish va sohaning barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun tizimli mexanizm sifatida xizmat qiluvchi yondashuvlarni mujassamlashtiruvchi “turizm sohasini diversifikatsiya qilish” tushunchasiga mualliflik ta’rifi keltirildi.

3. “OTT – biznes – davlat” modeli turizm va mehmondo‘stlik sohasida ta’lim hamda ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilish, yangi turistik xizmatlar va yo‘nalishlarni rivojlantirish, shuningdek, milliy turizm salohiyatini va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv sohaning barqaror va innovatsion rivojlanishi uchun mustahkam amaliy asosni shakllantiradi.

4. Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, turizm xizmatlarini hududiy diversifikatsiya qilish modellarini O‘zbekiston sharoitida moslashtirish hududiy ixtisoslashuv, mavsumiylikni kamaytirish, mahalliy aholi bandligini oshirish hamda barqaror hududiy rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga diversifikatsiya samaradorligi ko‘p jihatdan turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi kadrlarning malakasi, tadbirkorlik tafakkuri, servis madaniyati va turist bilan bevosita muloqot sifatiga bog‘liq. Masalan, Yevropa va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish jarayoni mahalliy gidlar, oilaviy mehmon uylari, hunarmandlar va fermer xo‘jaliklarining iqtisodiy faolligini oshirish, orqali amalga oshirish orqali amalga oshirilmoqda. Bu esa hudud aholisi daromadlarining barqaror o‘shirishiga va turizmdan olinadigan ijtimoiy samaraning kengayishiga xizmat qiladi.

5. “Har to‘rt faslda sayohat” tashabbusi doirasida bahor, yoz, kuz va qish turizm mavsumlarining ochilishiga bag‘ishlangan festival tadbirlarini o‘tkazish jarayonida respublikaning ekologik, ekstremal, agro-, gastronomik, tibbiy va sog‘lomlashtirish, plyaj va suvda dam olish, madaniy-ma’rifiy, ko‘ngilochar turizm hamda tog‘-chang‘i kurortlari salohiyatini namoyish etish va targ‘ib qilish maqsadida turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish samaradorligiga ta’sir etuvchi integral ko‘rsatkichlar tizimi asosida, diversifikatsiya indeksining juda past samaradorlik ( $DI < 0,4$ ), o‘rtacha samaradorlik ( $0,4 \leq DI < 0,6$ ) va yuqori samaradorlik ( $DI \geq 0,6$ )

darajalari bo'yicha klassifikatsiya mezonlariga tayangan holda ishlab chiqilgan hamda tegishli chegaraviy qiymatlari belgilangan hisoblash "Integral diversification" usuli bo'yicha takliflar asoslandi.

6. Turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish jarayonida tarmoqning ixtisoslashuvini chuqurlashtirish, turistlar oqimini oshirish hamda mavsumdan tashqari davrlarda ham jozibador va maxsus turistik yo'nalishlarni shakllantirish maqsadida chodirlar (kempinglar) uchun 100 mln so'mgacha, o'tovlar uchun 300 mln so'mgacha, ekouylar uchun 500 mln so'mgacha, konteynerlar uchun 600 mln so'mgacha, xostellar uchun 1 mlrd so'mgacha, glempinglar uchun 1,5 mlrd so'mgacha, modulli mehmonxonalar va avtokemping lagerlari (kamida 10 ta avtokemping) uchun 3 mlrd so'mgacha, milliy valyutada 5 yil muddatga, 1 yillik imtiyozli davr bilan, Markaziy bankning asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada kredit mablag'lari ajratish asosida xizmat, infratuzilma, boshqaruv va investitsion diversifikatsiya imkoniyatlarining o'zaro uyg'unligini ta'minlovchi "Hybrid diversification" modeli bo'yicha takliflar asoslandi.

7. Xorij davlatlaridan yanada ko'proq sayyohlarni jalb qilish, respublika hududlariga 15,8 million nafar xorijiy turistlarning safarlarini tashkil etish hamda turizm xizmatlari eksportini 4 milliard AQSh dollariga yetkazish maqsadida quruqlikdagi davlat chegara postlaridan o'tayotgan turistlar uchun alohida O'zbekiston turizm salohiyatini namoyish etuvchi "Turizm burchagi"ni tashkil etish asosida Buyuk ipak yo'lining "Zarafshon - Qoraqum yo'lagi" bo'yicha yangi turizm marshrutini ishlab chiqish va targ'ibot ishlarini amalga oshirish uchun "Zarafshan-Karakum Tourism Corridor" usulidan foydalanish dalillandi.

8. Respublikada turizm infratuzilmasidagi mavjud muammolarni hal etish, sohada ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va to'siqsiz turizm yo'nalishida davlat tomonidan nogironligi bo'lgan fuqarolarga qo'shimcha rag'batlantirishlar yaratish maqsadida ming nafar I va II guruh nogironligi bo'lgan fuqaroga O'zbekiston bo'ylab sayohat qilish xarajatlarining 50 foizi hamda eshinish qobiliyatini yo'qotgan nogironligi bo'lgan shaxslar uchun surdogidlar tayyorlash kurslari xarajatlarining 50 foizini qoplab berish asosida "Inklyuziv turizm modeli" usulidan foydalanish tartibi bo'yicha takliflar asoslandi.

9. Turizm xizmatlarini gorizontal diversifikatsiya qilish jarayonida mahalliy iqtisodiyotda dastlabki ekoturistik xarajatlarning multiplikatsiya koeffitsiyenti 3,12 deb hisoblangan va har bitta ekoturizm maqsadida kelgan turistning mamlakatdagi o'rtacha xarajatini hisobga olgan holda, transaksiya natijasida mamlakatimiz byudjetiga qo'shimcha ravishda bir yilda 587,7 mln AQSh dollari miqdorida multiplikativ samara olish imkoniyati dalillandi.

10. Turistik mahsulotni diversifikatsiya qilishda Boston Consulting Group tomonidan ishlab chiqilgan matritsa asosida turistik firmalarning tarmoqdagi bozor ulushi va o'sish sur'atlarini hisobga olgan xolda turistik mahsulotlarni ishlab chiqish, mavjud mahsulotlarning moslashuvchanligini oshirish, yangi bozorlarga chiqish va ilgari foydalanilmagan yangi turistik yo'nalishlarni rivojlantirish bo'yicha innovatsion strategiyalarni tanlashning takomillashgan usulidan foydalanish asoslandi.

11. Raqamli transformatsiyalashuv sharoitida sayyohlik mahsulotlarini, turistik xizmatlar va tovarlarni, axborot va raqamli xizmatlarni yaratish hamda iste'mol qilish jarayonidagi barcha tarkibiy elementlarni o'z ichiga oluvchi ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish modelining tarkibiy tuzilishi va uning tashkiliy bloklari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

12. Turistik xizmatlarning diversifikatsiya strategiyasini shakllantirishda hududlarning kuchli raqobatbardosh ustunligini saqlab qolish va zaif pozitsiyalarini mustahkamlashda PESTEL-tahlil usuli orqali turizm turlarini diversifikatsiya qilish strategiyasining imkoniyatlari aniqlangan hamda turizmning alohida turlarini diversifikatsiya qilish strategiyasidan foydalanish mexanizmlari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

13. Hududlarda turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish jarayonining ta'sirini hisobga olib, innovatsion turizm xizmatlaridan samarali foydalanish va turizmning YaIMdagi ulushini baholash ko'rsatkichlarining hisob-kitoblari asosida 2030-yilgacha bo'lgan o'rta muddatli prognoz parametrlari ishlab chiqildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.22/2025.27.12.I.01.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ МЕЖДУНАРОДНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ  
ТУРИЗМА И КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ «ШЕЛКОВЫЙ ПУТЬ»**

---

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ТУРИЗМА И КУЛЬТУРНОГО  
НАСЛЕДИЯ «ШЕЛКОВЫЙ ПУТЬ»**

**МАХМУДОВА АЗИЗА ПИРМАМАТОВНА**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИЧЕСКИХ ОСНОВ  
ПРОЦЕССА ДИВЕРСИФИКАЦИИ ТУРИСТСКИХ УСЛУГ В  
РЕГИОНАХ**

**08.00.17 – Туризм и гостиничная деятельность**

**АВТОРЕФЕРАТ**

**диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук (DSc)**

**Самарканд – 2026**

Тема диссертации доктора экономических наук (DSc) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций под регистрационным номером B2025.1.DSc/Iqt.904.

Диссертация выполнена в Международном университете туризма и культурного наследия «Шелковый путь».

Автореферат диссертации размещён на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета ([www.univ-silkroad.uz](http://www.univ-silkroad.uz)) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)).

**Научный консультант:** Тухлиев Искандар Суюнович  
доктор экономических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** Ибрагимов Нутфилло Салимович  
доктор экономических наук, профессор

Матякубов Умиджон Рахимович  
доктор экономических наук, профессор

Халилов Сирожиддин Шерали угли  
доктор экономических наук, профессор

**Ведущая организация:** Научно-исследовательский институт развития  
туризма

Защита диссертации состоится «6» июня 2026 года в 10:00 часов на заседании Научного совета по присуждению учёных степеней при Международном университете туризма и культурного наследия «Шёлковый путь» за номером DSc.22/2025.27.12.1.01.01 Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар, 17. Тел: (998 50) 213-89-07; Факс:(998 66) 240-67-68, e-mail: science-dept@univ-silkroad.uz, info@univ-silkroad.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Международного университета туризма и культурного наследия «Шелковый путь» (зарегистрирован под номером 48). Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар, дом 17, Тел.: (99866) 240-67-68; Факс: (99866) 240-67-68, электронная почта: info@univ-silkroad.uz.

Автореферат диссертации разослан « 8 » май 2026 года.  
(реестр протокола рассылки № 6 от « 8 » май 2026 года.).



**А.А.Эштаев**

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

**Х.И.Турдибеков**

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, к.э.н., доцент

**Б.Ш. Сафаров**

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора экономических наук(DSc))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире в условиях углубления процессов глобализации и усиления конкуренции на международном рынке туризма диверсификация туристических услуг становится одним из важных факторов, обеспечивающих устойчивое развитие региональных туристических систем. В мировой практике наблюдается переход от традиционных форм туризма к многоформатным туристическим продуктам. По данным UN Tourism «в 2025 году число международных туристических прибытий достигнет 1,52 миллиарда человек, что на 4% больше по сравнению с 2024 годом, и будет зафиксирован новый рекордный уровень развития мирового туризма»<sup>21</sup>. В этой связи важными особенностями развития современного туризма являются цифровизация туристических услуг, широкое внедрение технологий искусственного интеллекта, персонификация туристического опыта и формирование комплексных туристических экосистем. В этих условиях особое научно-практическое значение имеет совершенствование методологических основ процесса диверсификации туристических услуг, позволяющее сформировать инновационные туристические продукты в регионах, расширять спектр услуг и адаптироваться к глобальным тенденциям развития туристической индустрии.

В мире проводится множество научных исследований, направленных на совершенствование методологических основ процесса диверсификации туристических услуг в регионах, обеспечение устойчивого развития туристических направлений, повышение их конкурентоспособности и адаптацию к глобальным изменениям туристического спроса. В этой связи современные научные исследования уделяют особое внимание таким вопросам, как разработка моделей диверсификации туристических продуктов, интеграция культурных, природных и творческих ресурсов регионов, формирование комплексных туристических кластеров, использование инновационных инструментов управления, применение цифровых платформ, технологий искусственного интеллекта и анализа больших данных, выявление новых сегментов туристического спроса и формирование персонализированных туристических предложений, разработка концепций «зеленого туризма» и формирование интегрированных туристических экосистем, обеспечивающих диверсификацию туристических услуг и служащих устойчивому социально-экономическому развитию регионов.

В условиях Нового Узбекистана реализуются целевые программы и меры, направленные на эффективное развитие туризма в регионах посредством стремительной диверсификации туристических услуг, повышения уровня интеграции в глобальном масштабе и рационального использования потенциала туристических направлений. «Мы хотим создать условия для туристов, но при этом важно правильно выстроить и основу... Согласно мастер-плану, будут сформированы так называемые «коридоры развития»,

---

<sup>21</sup> <https://www.itij.com/latest/news/global-tourism-hits-152-billion-arrivals-2025-africa-leads-growth>

охватывающие сферы образования и инноваций, туризма и торговли, культурного наследия, бизнеса и IT-услуг»<sup>22</sup>. В этой связи решение данных задач требует углубленных научных исследований по совершенствованию методологических основ процесса диверсификации туристических услуг в регионах, разработке научных подходов к эффективному использованию региональных туристических ресурсов, совершенствованию механизмов развития туристических кластеров, прогнозированию туристических потоков на основе цифровых технологий и искусственного интеллекта, изучению инновационных моделей управления качеством туристических услуг и механизмов развития туристической инфраструктуры на основе государственно-частного партнерства, а также изучению научно-практических основ развития новых туристических направлений, таких как экотуризм, гастрономический, паломнический, оздоровительный и креативный туризм, и прогнозированию их перспективных параметров с использованием эконометрических моделей.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, предусмотренных нормативно-правовыми актами Республики Узбекистан в данной сфере, включая Указы Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года №УП-158 «О Стратегии «Узбекистан – 2030»», от 12 января 2024 года № УП-9 «О мерах по резкому увеличению потока иностранных туристов в Республику и дальнейшему ускорению внутреннего туризма», от 30 января 2026 года №УП-15 «О мерах по дальнейшему расширению связей Республики Узбекистан с зарубежными странами в сферах культуры и туризма», Постановлениями Президента Республики Узбекистан от 4 октября 2019 года №ПП-4477 «Об утверждении Стратегии по переходу Республики Узбекистан на «зеленую» экономику на период 2019 – 2030 годов», от 2 декабря 2022 года №ПП-436 «О мерах по повышению эффективности реформ, направленных на переход Республики Узбекистан на «зеленую» экономику до 2030 года», от 26 апреля 2023 года №ПП- 135 «О дополнительных мерах по ускоренному развитию туристского потенциала республики, а также дальнейшему увеличению количества местных и иностранных туристов», от 12 января 2024 года №ПП-21 «О мерах по ускоренному развитию экологического туризма в Республике Узбекистан», от 18 июля 2024 года №ПП-269 «О мерах по совершенствованию системы подготовки кадров в сфере туризма», Кабинета Министров от 24 июня 2025 года №385 «О мерах по стимулированию использования продукции с пониженным негативным воздействием на окружающую среду и услуг, оказываемых в соответствии с экологическими требованиями в объектах туризма и средствах размещения», от 15 декабря 2025 года №787 «О дополнительных мерах по совершенствованию деятельности Самаркандского кампуса Международной академии туризма» и другие нормативно-правовые документы, связанные с данной сферой<sup>23</sup>.

---

<sup>22</sup> <https://president.uz/ru/lists/view/8875>

<sup>23</sup> <https://lex.uz> – Национальная база законодательных документов.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

#### **Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации<sup>24</sup>.**

